

**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti “Axborot texnologiyalari, aniq va tabiiy
fanlar” kafedrasida dotsenti Safarova Lola Ulmasovna tomonidan
“Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanidan “Jadvalli
axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari” mavzusida tayyorlangan
ma’ruza matniga**

TAQRIZ

Tuzilgan ma’ruza matni quyidagi tayanch rejalar (tushunchalarni) qamrab oladi: Microsoft Excel – bu ma’lumotlarni qayta ishlash, hisob-kitoblarni amalga oshirish va ma’lumotlarni tahlil qilish uchun mo’ljallangan kuchli elektron jadval protsessori hisoblanadi. Uning asosiy vazifalaridan biri – formulalar va funksiyalar yordamida avtomatlashtirilgan hisob-kitoblarni bajarishdir. Ushbu mavzu bo’yicha quyidagi jihatlarni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, Microsoft Excel va uning imkoniyatlari bo’limi dasturiy ta’minotning asosiy xususiyatlarini o’rganishga bag’ishlangan. Bu bo’limda Excel’ning ma’lumotlarni saqlash, tahlil qilish, vizualizatsiya qilish va avtomatlashtirishga oid imkoniyatlari batafsil yoritilishi lozim.

Ikkinchidan, Excel’da ustunlar, satrlar, diapazonlar va sahifalar bilan ishlash bo’limida elektron jadvallarning tuzilishi, ma’lumotlar bilan ishlash prinsiplari, hujayralarni adreslash va ularning o’zaro bog’lanishi bo’yicha tushunchalar shakllantiriladi. Shu bilan birga, ma’lumotlarni guruhlash, nusxalash va formatlash kabi amaliy jihatlarni ham muhim hisoblanadi.

Uchinchidan, o’zgaruvchilarning tiplari va ulardan foydalanish bo’limi Excel’da ma’lumotlar turlarini, masalan, matn, son, sanalar va formulalarni qanday ishlatish mumkinligi haqida ma’lumot beradi. Bu bo’lim, ayniqsa, VBA (Visual Basic for Applications) bilan ishlashda muhim ahamiyatga ega bo’lib, avtomatlashtirilgan jarayonlarni yaratishda zaruriy bilim va ko’nikmalarni shakllantirishga yordam beradi.

Umuman olganda, mazkur mavzu Microsoft Excel dan samarali foydalanish, hisob-kitoblarni avtomatlashtirish va ma’lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarini o’zlashtirish uchun muhim nazariy va amaliy asosni yaratadi.

Ma’ruza matnida qishloq xo’jalik sohasiga oid Microsoft Excel va dasturiy ilovalar keltirilgan. Safarova Lola Ulmasovna tomonidan tayyorlangan “Jadvalli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari” mavzusidagi ma’ruza matni uslubiy jihatdan talab darajasida ishlab chiqilgan.

Tayyorlangan ma’ruza matni ma’ruza mashg’ulotlarida foydalanishga tavsiya etiladi.

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislar instituti” Milliy tadqiqot universiteti kafedrasida dotsenti Safarova Lola Ulmasovna tomonidan tayyorlangan “Jadvalli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari” mavzusidagi ma’ruza matni uslubiy jihatdan talab darajasida ishlab chiqilgan.

Muxamediyeva Dilnoz Tulkunovna



**Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti “Axborot texnologiyalari, aniq va tabiiy
fanlar” kafedrasida dotsenti Safarova Lola Ulmasovna tomonidan
“Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanidan “Elektron
jadvallarni qayta ishlash texnologiyalari” mavzusida tayyorlangan
ma’ruza matniga**

TAQRIZ

Elektron jadvallarni qayta ishlash texnologiyalari zamonaviy axborot texnologiyalarining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish usullarini o‘z ichiga oladi. Ma’ruza matni mavzuga mos ravishda tizimli va mantiqiy ketma-ketlikda yoritilgan bo‘lib, jadvalli axborotlarni qayta ishlashning asosiy tamoyillari, texnologik yondashuvlari va dasturiy vositalari aniq va tushunarli bayon etilgan va auditoriya uchun foydalidir.

Ma’ruza matni jadvalli axborot tizimlarining nazariy va amaliy asoslariga tayangan holda tayyorlangan va mavjud ilmiy maqolalar, statistik ma’lumotlar, zamonaviy dasturiy ta’minot tahlili keltirilgan, ilmiy jihatdan mustahkamlangan.

Elektron jadvallarni qayta ishlash texnologiyalarining amaliyotdagi qo‘llanilishi yetarlicha ochib berilgan. Masalan, elektron jadvallar (MS Excel, Google Sheets), ma’lumotlar bazalari (SQL, PostgreSQL, MySQL) yoki biznes-analitika vositalari haqida misollar keltirilgan bo‘lib bu mavzuni yanada mazmunli yo‘ritgan.

Hozirgi kunda bulutli texnologiyalar, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ma’ruza matnida bu kabi zamonaviy yondashuvlarga alohida e’tibor qaratilgan.

Grafiklar, jadvallar va misollar orqali tushuntirish berilgan bu auditoriyaning mavzuni o‘zlashtirishini osonlashtiradi.

Ma’ruza matnida qishloq xo‘jalik sohasiga oid Microsoft Excel va dasturiy ilovalar keltirilgan. Safarova Lola Ulmasovna tomonidan tayyorlangan “Jadvalli axborotlarni qayta ishlash texnologiyalari” mavzusidagi ma’ruza matni uslubiy jihatdan talab darajasida ishlab chiqilgan.

Tayyorlangan ma’ruza matni ma’ruza mashg‘ulotlarida foydalanishga tavsiya etiladi.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Axborot texnologiyalari, aniq va tabiiy fanlar” kafedrasida dotsenti



Urdushev Xamrakul